

KUTUBXONALARDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI

O'ktam Nosirov,

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Kutubxona-axborot faoliyati" kafedrasining professori v.b.,
falsafa fanlari nomzodi*

Annotatsiya: Maqolada hozirgi sharoitda madaniy, ma'naviy va mafkuraviy, siyosiy vazifalar doirasi kengayib borayotganligini hisobga olgan holda, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni har tomonlama kuchaytirish, uning samaradorligini oshirishga har tomonlama ahamiyat berish zaruriyatga aylanayotganligi, globallashuv jarayonlarining kuchayishi natijasida jahon miqyosida tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdidlar kuchayib borayotganligi tufayli ayrim fuqarolarning, ayniqsa yoshlarning terroristik va diniy ekstremistik harakatlarga adashib qo'shilib qolishi, milliy qadriyatlarga e'tiborsizlik tufayli kelib chiqayotgan turli salbiy holatlar, jinoyatchilik, to'ylardagi ortiqcha isrofgarchiliklar, oilaviy ajralishlar, aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishning dolzarb vazifa ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Samara, samaradorlik, oqibat, natija, erishilgan daraja, ma'naviy-axloqiy tarbiya, jamiyat, omil, e'tiqod, ma'naviy ehtiyoj, meyor.

ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДУХОВНО- ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ РАБОТЫ В БИБЛИОТЕКАХ

Аннотация. В статье рассматривается, что в современных условиях, с учётом расширяющегося круга культурных, духовных, идеологических и политических задач, необходимость всестороннего усиления духовно-просветительской деятельности и повышения её эффективности становится особенно актуальной. Отмечается, что вследствие усиления процессов глобализации растут новые угрозы миру и стабильности во всём мире, что приводит к вовлечению отдельных граждан, особенно молодёжи, в террористические и религиозно-экстремистские движения. Также освещаются различные негативные явления, возникающие из-за неуважения к национальным ценностям: преступность, чрезмерные расточительные траты на торжества, рост числа разводов. В этих условиях повышение эффективности духовно-просветительской работы среди населения приобретает особую значимость.

Ключевые слова: эффективность, результативность, последствия, итог, достигнутый уровень, духовно-нравственное воспитание, общество, фактор, убеждение, духовная потребность, норма.

FACTORS FOR ENHANCING THE EFFECTIVENESS OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL WORK IN LIBRARIES

Annotation. *The article discusses how, under current conditions and considering the expanding range of cultural, spiritual, ideological, and political tasks, the need to comprehensively strengthen spiritual and educational activities and improve their effectiveness is becoming increasingly urgent. It is noted that due to the intensification of globalization processes, new threats to global peace and stability are growing, which leads to some citizens—especially young people—being misled into joining terrorist and religious extremist movements. The article also highlights various negative phenomena arising from the neglect of national values, such as crime, excessive extravagance at celebrations, and increasing family divorces. In this context, enhancing the effectiveness of spiritual and educational work among the population is presented as a highly important task.*

Keywords: *effect, effectiveness, consequence, outcome, achieved level, spiritual and moral education, society, factor, belief, spiritual need, norm.*

KIRISH

Bugungi kunda islohotlar Strategiyasini amalga oshirish xalq va mamlakat manfaatlarini ko'zlagan obektiv jarayon ekanligini hayot to'la tasdiqlamoqda. Ushbu jarayonlar yuksak ma'anaviyatni shakllantirish, fuqarolarning o'z hayoti va turmushiga, faoliyatiga munosabatini tubdan o'zgartirishni, ularda yangicha tafakkur va ma'rifiy dunyoqarashni tarbiyalashni talab qiladi. Jamiyatning sifat jihatdan yangi bosqichga o'tishi ijtimoiy hayotning barcha jabhalari kabi ma'naviy hayot sohasida ham tub burilishlarni taqozo qiladi. Bu o'zgarishlarning barchasi har bir fuqaroning ongli faoliyatiga, tashabbuskorligiga, amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg'usining shakllanganlik darajasiga, ma'naviy yetukligiga bog'liq.

Bundan tashqari, uyushmagan yoshlar o'rtasida ma'naviy-ahloqiy tarbiya ishlarini kuchaytirish maqsadida ularni to'la qamrab olish, voyaga yetmaganlar jingoyatchiligining oldini olish muammosining keskin bo'lib turganligi nuqtai-nazaridan yondashiladigan bo'lsa ko'rib chiqilayotgan muammoning dolzarbligi yanada oydinlashadi.

Zero, yurtimizda tinchlik va osoyishtalikning barqarorligini ta'minlash, jaholatning turli ko'rinish-lariga qarshi ma'rifatga asoslangan bilim va tafakkur orqali kurashish, sog'lom ma'naviy ehtiyojni shakllantirish zarurati ham ushbu muammolar bilan bog'liqdir.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish omillarini aniqlab olishdan avval "samara", "samaradorlik", "omil" tushunchalari nimani anglatishini ko'rib chiqmoq kerak.

"Samara", "samaradorlik" tushunchalari "oqibat", "natija", "erishilgan daraja", foydalilik ma'nolarini anglatadi.

Iqtisod sohasida samaradorlik mahsulot ishlab chiqarish, sarflangan xarajat va olingan foyda nisbatiga ko'ra baholansa, ma'naviy-ma'rifiy ishlar sohasida samaradorlik maqsadga erishish darajasi bilan bog'liq bo'lib, uni belgilash murakkab jarayondir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

"Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga erishishning bosh yo'nalishi eng asosiy maqsadimiz bo'lgan, ya'ni milliy qadriyatlarimiz, milliy va umuminsoniy an'analarga mos keladigan fuqarolik jamiyatini barpo eta borib, unga munosib tarzda xizmat qila oladigan, mamlakat ijtimoiy taraqqiyotida faol ishtirok etuvchi, o'zida yuksak ma'naviy axloqiy, g'oyaviy-mafkuraviy sifatlarni mujassamlashtirgan, vatanparvar, millatparvar shaxslarni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqadi" [5:16].

Ushbu maqsad bilan bog'liq bo'lgan holda ma'naviy-ma'rifiy ishlar orqali amalga oshiriladigan vazifalar to'g'ri belgilab olinishi kerak. Bular quyidagilar:

- Fuqarolarda, ayniqsa, yoshlar ongida vatanparvarlik va millatparvarlik ruhiyatini shakllantirish;

- Jahon taraqqiyotining bugungi bosqichda tinchlik va barqarorlikning bebaho ne'mat ekanligi, unii asrash va saqlashning har bir fuqaroning muqaddas burchi ekanligini singdirish;

- Foydalanuvchilar ongida ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi yuksak sifatlarni shakllantirish, tajovuzkor millatchilik, shovinizmning mohiyatini tushuntirib berish;

- Jamiyatda ijodiy muhitni yaratish orqali tashabbuskorlikni kuchaytirish, har bir foydalanuvchida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan o'zgarishlar jarayonida daxldorlik hissini uyg'otish, loqaydlik, mas'uliyatsizlik singari illatlarni bartaraf qilish;

- Kishilarning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ahloqiy, diniy, estetik madaniyatini oshirish, jahonda va mamlakatimizda ro'y berayotgan voqea-hodisalarni qalbdan anglab yetish salohiyatini takomillashtirish;

- Fuqarolarning shaxsiy rejalari, ijtimoiy mo'ljallarining mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jarayonlarga, Harakatlar strategiyasi maqsadlariga muvofiqligi, mutanosibligi va uyg'unligiga erishish;

- Foydalanuvchilarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish, ijtimoiy faolligini oshirish, ijtimoiy-siyosiy voqea va xodisalarga baho bera olish ko'nikmasini shakllantirish, mafkuraviy-g'oyaviy jarayonlarni ongli ravishda anglab yetishga ko'maklashish;

- Yoshlarda "ommaviy madaniyat", "ma'naviy tahdid", "johillik" tushunchalarining ma'no-mazmuni, mohiyatini anglab yetishiga, mafkuraviy immunitetni hosil qilishga yordam berish;

- Sog'lom ma'naviy ehtiyojni shakllantirish, har bir fuqaroda uning o'zining shaxs sifatida rivojlanishi uchun ko'maklashadigan ijobiy fazilatlarni tarbiyalash;

- Jamiyat a'zolarining, ayniqsa, yoshlarning bo'sh vaqtini oqilona, mazmunli tarzda tashkil etish, ularning qiziqishlariga ko'ra turli yo'nalishlarda to'garaklar uyushtirish, iqtidorlarini yanada rivojlantirish orqali o'z hayotiy faoliyatlarini belgilab olishlarida ko'maklashishdan iboratdir.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish uchun uning tashkilotchilaridan quyidagi talablarga javob bera olishlari talab qilinadi:

- Foydalanuvchilarning ma'naviy ehtiyojlarini va qiziqishlarini aniq hisobga ola bilish malakasining mavjudligi;

- Yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli, oqilona tashkil etish, qiziqishlari bo'yicha ularning turli to'garaklarga uyushishga yo'naltira olish;

- Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimida turli tadbirlarni muvofiqlashtirilgan tarzda olib borish malakasining mavjudligi;

- Hududdagi ma'naviy muhit haqida, o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning sotsiologik tahlili asosida xulosalar bera olish malakasining mavjudligi;

- Turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish bo'yicha ssenariylar yoza bilish;

- Yoshlarda sog'lom ma'naviy ehtiyojni va ma'naviy ma'rifiy dunyoqarashni shakllantirishga oid bilimi va iqtidorining mavjudligi;

- Har bir ma'naviy-ma'rifiy tadbirda qatnashuvchilarning muayyan yangilikka ega bo'lishi va ularning faolligining oshishiga turtki bera olishi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, unga yanada kuchliroq ijodiy ruh berish va aniqlik kiritishda ularning muayyan talablarga javob beradigan rejasi alohida o'rin tutadi.

Bu talablar quyidagilardan iborat:

- Rejada jamiyat va davlat tomonidan amalga oshiriladigan vazifalar o'z aksini topishi lozim;

- Foydalanuvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari, intilishlarining e'tiborga olinishi o'ta muhimdir;

- Tadbir ishtirokchilarining bilim darajasi, ahloqiy salohiyati avvaldan hisobga olinishi zarur.

Ta'kidlash lozimki, "amalga oshirilishi kerak bo'lgan har bir ma'naviy-ma'rifiy tadbirning pirovard natijasi eng avvalo rejaning aniqligi, uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etilganligi, amalga oshirish imkoniyatlari va vositalarining mavjudligi, asosli talab va ehtiyojlarning hisobga olinishiga bog'liqdir" [7:83]. Shuning uchun ham rejalarni tuzishdan avval suhbat, anketa, sotsiologik so'rovnomalar o'tkazish, ularning natijalaridan unumli foydalanish natijadorlikni ta'minlash kafolati bo'lishi mumkin.

TAHLIL VA MUHOKAMA.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda aniq belgilangan va tajribaga asoslangan tamoyillarga tayanish muhim ahamiyatga egadir. Ushbu tamoyillar quyidagilardir:

Ilmiylik tamoyili. Bugungi kunda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish unda foydalani-ladigan turli vositalarning o'zaro aloqadorligini va uyg'unlashuvini, ilmiy asosda tashkil etilishini, maqsadga qaratilganligini, aniq natijaga erisha bilishni talab etadi. Shuningdek, ilmiylik tamoyili ma'naviy-ma'rifiy tadbirning maqsadini, mazmunini, turlari va uslublarini, dalillashni, turli fanlarning yutuqlaridan ijobiy foydalanishni talab qiladi. Umuman olganda, ilmiylik tamoyiliga

tayanish talabalar va o'quvchi-yoshlarda ma'rifiy dunyoqarashni shakllantirishga va tafakkur erkinligini tarbiyalashga yordam beradi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishda majmuaviylik tamoyiliga asoslanish ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va g'oyaviy hodisalarning bir biriga bog'liqligi, taqozolanishi, o'zaro ta'sir ko'rsatishiga aloqadorlikdan kelib chiqadi.

Majmuaviylik tamoyili ma'naviy tarbiya maqsadlarini ilmiy asoslash, turli guruhlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda ommaviy, guruhli, yakka tartibda ish olib borish yo'nalishlarini aniq belgilab olish imkonini beradi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda bo'sh vaqtdan oqilona, samarali foydalanish differensial yondoshuv tamoyiliga tayanib amalga oshirilishi alohida ahamiyatga egadir. Differensial yondashuv tamoyili ma'naviy ma'rifiy ishlar mazmuni, tashkil etilishi, usul va shakllari, vositalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishidan tashqari, tadbirlarda ishtirok etuvchilarning barchasini ularning qiziqishlari va intilishlariga ko'ra tadbir obektiga aylantiradi. Hayot bilan aloqadorlik tamoyili ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda mavzularning davlat va jamiyat oldida turgan strategik maqsadlar hamda taktik vazifalar bilan bog'liq tarzda tanlanishi, aniq va maqsadga yo'naltirilganligini belgilab beradi. Axborot-kutubxona muassasalarida foydalanuvchilarning ma'naviyatini ma'rifiy asoslarga tayangan holda shakllantirish nazariyasini takomillashtirish va amaliyotda qo'llash samaradorligini ta'minlovchi "omil"larni aniqlab olish ham alohida ahamiyatga egadir.

"Omil" atamasini "turli fanlardagi talqinlarga binoan umumlashtirish asosida mazmuniga ko'ra "rivojlanishga ta'sir etuvchi holat", "harakatga keltiruvchi sabab" sifatida talqin etish mumkin" [8:154].

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligin oshirishga ta'sir etuvchi omillar deganda, foydalanuvchilarning ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan jarayonlarga daxldorlik tuyg'usining shallanishi asosida ularni faollikka yetaklovchi, ma'naviyatini yuksaltirishga ta'sir ko'rsatuvchi sabab tarzida ifodalanadi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarda samaradorlikka erishishning asosiy omillari muayyan maqsad, qadriyat asosida shakllangan tafakkur tarzi, dunyoqarash bo'lgan e'tiqod, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya sohasida tinglovchilarning ehtiyoji hisobga olingan holda tashkil etilgan tadbirlarda meyorga amal qilish, insonlarni amaliy harakat sari yo'naltiruvchi motivlar, topshirilgan vazifaning bajarilishiga nisbatan mas'uliyat tuyg'usi kabilardir.

Ma'lumki, ma'naviy yetuklik insonning o'z shaxsiy manfaatlarini, jamiyat, el-yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishida namoyon bo'ladi. Bu esa har bir kishidan o'z manfaatlarini ham, jamiyat manfaatlarini ham farqlab olishni, ularni to'g'ri tushunishni, soxta qadriyatlarga uchmaslikni talab qiladi. Buning uchun har bir fuqaroda Vatan va xalq manfaatlarini qadrlash, uni e'zozlash kabi fazilatlarning asosi bo'lgan mustahkam e'tiqod mavjud bo'lishi kerak.

E'tiqod- ijtimoiy ruhiy (psixologik) tushuncha bo'lib, insonda muayyan qarash, nazariya, hayotiy aqida, faoliyat tamoyillarining hissiy qabul qilish jarayonida shakllangan sobit fikr va tasavvurlar majmuidir. E'tiqod muayyan falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy g'oyalar, qarashlarning inson ongiga singib, uning tafakkur uslubi va faoliyatiga yo'nalish beruvchi mezonga aylanishi hamdir. Har qanday ijtimoiy g'oya, ahloq-odob tizimi, bilim, dunyoqarash, mafkura inson tomonidan muayyan maqsadlar va ehtiyojlar bilan bog'liq ravishda uning ongiga chuqur singib, faoliyatiga maqsad va yo'nalish beradigan ma'naviy zamin bo'lgandagina e'tiqodga aylanadi. E'tiqodli kishi diniy va dunyoviy, ilmiy bilimlardan xabardor, ajdodlar merosiga ixlosi mustahkam, ko'nglida mehr-shafqat, insof-diyonat chuqur o'rin olgan kishidir. Umuman olganda e'tiqod shaxs va jamiyat ma'naviyatining o'zagidir.

E'tiqod o'zining keng ma'nosida aql, his, iroda vositasida anglangan bilim, g'oya va shu asosda shakllangan maqsadlar majmuasidir. Bilim va g'oyalar insonning ham aqli, ham qalbi bilan o'zlashtirib olingandagina e'tiqodga aylanadi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar orqali e'tiqodning shakllantirilishi shaxs dunyoqarashining barqarorligini ta'minlashga, qiyinchiliklarni bartaraf etishning oqilona yo'llarini topishga, izchillik va faollikga yo'naltirishga yordam beradi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshi-rishning eng muhim omillaridan biri meyorga amal qilishdir.

Meyor tushunchasi nimani anglatadi?

Narsa va hodisalardagi miqdoriy va sifatiy tomonlar doimo bir birini taqozo qilib, birlikda bo'ladi. Har qanday narsa yoki hodisa miqdor va sifat birligiga egadir. Miqdor va sifatning birligi, o'zaro bog'liqligi meyor tushunchasida ifodalanadi. Meyor har bir narsa yoki hodisadagi miqdor va sifat o'rtasidagi o'zaro munosabatni ifoda etadi.

Bu o'rinda har bir narsa, hodisa o'ziga xos o'lchovga ega bo'ladi, chunki ushbu sifat xususiyati har qanday miqdor bilan emas, balki muayyan miqdor bilan uyg'unlashadi. Ushbu obektga xos bo'lgan miqdoriy o'zgarishlar doirasidan chiqish meyorning buzilishiga olib keladi va yangi sifat o'zgarishini talab qiladi.

XULOSA.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarda meyorning buzilishi har bir tadbirni o'tkazishda vaqt jihatidan uning cho'zilib ketishi zerikishga, tadbirlar sonining haddan tashqari ko'payib ketishi natijasida tadbir-bozlikning shakllanishi, qatnashchilarda tadbirdan bezish holatiga olib kelsa unday tadbirlarning ijobiy natijasi, samarasi kam bo'ladi.

Tizimli, ilmiy asoslangan, vaqt, miqdor jihatidan meyorni bilish asosida olib boriladigan tadbirlarning foydaliligi, ijobiy natijasi, samaradorligi yuqori bo'ladi.

Ma'naviy ehtiyojni anglashning asosiy shakllaridan biri motiv bo'lib, u lotincha "harakatlantiraman" , fransuzchada "undovchi sabab" degan tushunchalarni anglatadi. U shaxsni aqliy, amaliy harakatga va xulq-atvorni amalga oshirishga undovchi, muayyan ehtiyojlarni qondirish bilan uzviy bog'liq mayl, ixtiyoriylikdir. Demak, motiv inson hissiyotini uyg'otadigan, uning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga yordam beradigan omildir.

Ma'naviy- ma'rifiy ishlarni tashkil etish va unda qatnashish ehtiyoji nuqtai nazaridan motivatsiya tushunchasi tashkilotchilar va qatnashuvchilarning ixtiyoriy intilishini keltirib chiqaradigan ichki hissiyotlardir.

Bundan tashqari ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat qator omillarni hisobga olishni talab etadi. Ularni quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

- Ma'naviy-ma'rifiy ishlar mazmuni, shakl, usul, vositalarining milliy harakteri;

- Ijtimoiy omillar: ma'naviy-ma'naviy ishlar jarayonida ixtiyoriylik, erkinlik, tenglik va oshkoralik;

- Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishdagi moddiy-texnika asosi, axborot-resurs fondi, mavjud to'garaklarning faoliyat darajasi.

Mazkur omillarning ahamiyati, o'ziga xos xususiyatlari va holatlari hisobga olingan taqdirda samaradorlikning oshishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tashkilotchilarining vazifasi amalga oshirilgan tadbirlar jarayonida mazkur omillarga e'tibor berishdan iboratdir.

Tashkil etilgan har bir ma'naviy-ma'rifiy tadbir foydalanuvchilar ongida ma'naviy yuksalishning yagona ilmiy manzarasi haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishi, shaxsiy hayotda, jamiyatda o'z o'rnini topishga erishishi; ma'naviy madaniyat tizimi tarbiyaviy mohiyatini anglab yetish malakasini shakllantirishi; o'z ma'naviy faoliyatining natijalarini oldindan ko'ra bilishiga o'rgatishi; tabiat va jamiyat, inson va u yashaydigan muhit haqida ilmiy bilimlar hosil qilishi kerak. Ma'naviy tarbiya maqsad va vazifalarini ijobiy hal etishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar xarakteriga mos ma'naviy muhit yaratish uchun barcha omillarga tayanish talab etiladi.

Chunki, yoshlar qadriyatlarining tub mohiyatini anglab yetishlari uchun avvalo muhit zarurdir. Bu muhit tashkilotchilar va tadbir ishtirokchilarining o'zaro hamkorligida yaratiladi.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazilayotgan mavzuning xarakteriga mos shakllar, usullar va vositalarni tanlash, ular ustida ijodiy ish olib borish, muloqot madaniyati qoidalariga rioya etish, tadbirni tashkil etuvchilarning o'rganishi lozim bo'lgan qo'shimcha manbalarning mavjudligi, axborot-kutubxona markazlaridagi shart-sharoit, bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil eta bilish sof ma'naviy muhitni vujudga keltirishda katta ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

9. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.-uchinchi nashr, Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.- 2022.-440 b.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ma'naviy – ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida. – "Halq so'zi" gazetasi, 2017 yil, 29 iyul.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Diniy – ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida.- "Halq so'zi" gazetasi, 2018 yil, 17 aprel.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Yoshlarni ma'naviy – ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim – tarbiya berish tizimini sifat jixatidan yangi bosqichga ko'tarish chora – tadbirlari to'g'risida.- "Halq so'zi" gazetasi, 2018 yil, 14 avgust.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Ma'naviy – ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida". - "Halq so'zi" gazetasi, 2019 yil 4 – may.
14. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud ahloq.- T.O'qituchi. 1992- 160 b.
15. Agzamxodjayeva S.S. Ijtimoiy ideal va ma'naviy hayot.- T.; Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2007.-229 b.
16. Azroyans E. Globalizatsiya: Katastrofa ili put k razvitiyu? – M.: Noviy vek, 2002.- 152 s.